

## MILLIY SPORT TURLARI-O'ZBEK XALQINING CHINAKAM FAXRI

*Urganch Davlat Pedagogika Instituti  
talabasi*

**Samandarova Farangiz.**

*Urganch Davlat Pedagogika Instituti  
talabasi*

**Asadbek Shonazarov**

**Annotatsiya:** *Bu maqolada milliy sport turlarimiz haqida, jumladan, kurash, belbog'li kurash, jang san'ati kabi sport turlar haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.*

**Kalit So'zlar:** *Kurash, sport, o'zbek jang san'ati, milliy sport turlari, sport tarixi*

O'zbek xalqining o'ziga xos turmush tarzi, mehnat va jismoniy faoliyati mavjud. Hamma narsada milliylik bo'lgani kabi, o'zbek xalqining ham milliy sport turlari mavjud.

Bu o'zbek milliy sport turlari ota-bobolarimiz zamonlaridan to hozirgi davrgacha sayqallanib, mukammalashib kelmoqda. Va hech ikkilanmay aytohamizki bu milliy sport turlari har bir sport oshnosining qalb-qalbiga singib ketgan.

Aynan ana shu milliy sport turlarimizdan kurash, belbog'li kurash va o'zbek jang san'atini misol qilib ko'rsata olamiz.

Baralla, faxr bilan ayta olamizki bu sport turlarimiz chinakamiga o'zbek xalqining milliylikini o'zida aks ettira olgan.

Farzand qalbi yoshligidan sportga oshno bo'lishi uchun o'tmishda ota-bobolarimiz bolalarini 2-3 yoshidanoq shug'ullantira boshlaganalar. Buning yorqin dalili sifatida buyuk bobokalonimiz Amir Temur davrida o'g'il bolalarga chavandozlik 3 yoshidan o'rgatilganligini aytishimiz mumkin.

Faxrlanadigan jihati shundaki hozirga kunda Kurash milliy sport turimiz dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarida keng tarqaldi. Shu bilan qo'shimcha tarzda bu sport turi bo'yicha chempionatlar va jahon birinchiliklari, qolaversa qitalar o'rtasida musobaqalar o'tkazilmoqda. Eng quvonarli jihati shundaki, Kurash sport turi Osiyo o'yinlari dasturiga qo'shilishi birgina O'zbekistonning emas balki butun jahon sport hamjamiyati hayotida muhim jarayon bo'ldi.

Bu jarayon bilan har bir o'zbek farzandi faxlansa g'ururlansa arziydi.

Darvoqe, haqiqatda bu milliy sport turlarimiz bobolarimiz zamonlaridan shakllanib, sayqallanib kelmoqda. Jumladan, o'zbek jang san'atini olib qaraydigan bo'lsak, bu sport turi O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 2009-yil noyabrdagi qaroriga binoan sport turlari safiga qo'shilgan. Agar sport turing yaratilish tarixiga qaytadigan bo'lsak 5000 yillik tarixga ega deb bemalol ayta olamiz.

Aynan 2009-yildan buyun bu sport turi o'zida yetuk sportchilarni, sovrindor va g'oliblarni yetishtirib chiqara oldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirda Urganch davlat pedagogika instituti talabasi sifatida shuni faxr bilan ayta olamizki aynan bizning oliy ta'lim muassamizda ham bu soha bo'yicha yetarlicha ko'nikmaga ega bo'lgan talabalarimiz mavjud. Shular ichida Asadbek Shonazarov



**Asadbek Shonazarov O‘zbekiston chempioni**

Urganch davlat pedagogika instituti Harbiy vatanparvarlik loyihalari koordinatori

O‘zbekiston chempioni va bir qancha musobaqalar sovrindori hamdir. Bu kabi talabalarimizni chin ma’noda isntitutimiz faxri desk arziydi.

Qolaversa, mamlakatimizda bugungi kunning o‘zida sportga bo‘lgan qiziquvchanligi mavjud yoshlarimiz uchun imkoniyatlar beqiyos. Buning yaqqol dalili sifatida yangidan ochilayotgan sport maskanlari , sport inshootlari va komplekslarni misol qilib olishimiz mumkin.

Aynan yaratilayotga shart-sharoitlarga javoban , bizning sportchilarimiz ham belni mahkam bog‘lab peshqadamlar safida ildam qadam tashlashmoqda. Jahon arenalarida turib vatanimiz bayrog‘ini ko‘klarga ko‘tarishmoqda. Bu yoshlarimizni ko‘rib esa ko‘ksimizda ajib bir g‘urur paydo bo‘lishi bejiz emas.